

AXSIKENT TARIXI XUSUSIDA.

NAMANGAN VILOYAT TARIXI VA MADANIYATI DAVLAT MUZEYI

ILMIY XODIMI: **TURG'UNPO'LATOVA ROHILA**

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani hududida joylashgan qadimiy Axsikent haqida, uning tarixiy manbaalari, o'z davridagi Axsikent hunarmandchilligi, suv inshootlari, uy-joy inshootlari, savdo –sotiq aloqalari haqida yoritib berilgan. Shuningdek Axsikentdagi arxeologik topilmalarning bugungi kundagi ahamiyati ularning qadimiyligi yosh tarixchi avlodlarga muhim ma'lumotlarni ochib beradi.

“Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir” deb takidlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati moddiy madaniy merosga katta e'tibor berib, ularni o'rganish, muhofaza va qilish va saqlash to'g'risida bir necha qarorlar qabul qildilar. 2019-yildan Axsikent yodgorligi asosida Italiya tajribasidan kelib chiqib, Respublikada birinchi “Arxeologiya parki” tashlik qilinmoqda. Bu park 2 qismga bo'linib, 1-si Ochiq osmon ostida muzey. 2-si O'tmishga sayohat majmuasidan iborat. Bu majmua asosan arxeologiya muzeyi, xalqaro festival o'tkaziladigan amfiteatr va hunarmandlar rastasidan iborat. Bu muzeyga kirgan sayyoh qadimgi farg'onaliklarning kundalik hayoti turmush tarzi va dunyoqarashi bilan bog'liq ma'lumotlarga ega bo'ladi.

O'zbek davlatchiligi tarixida Farg'ona poytaxti Axsikentni Buyuk ipak yo'lining gullab yashnashidagi ro'li katta bo'lgan. Shahar qal'asi haqida dastlab aniq ma'lumotlar bo'lmagan. Uning asosiy qismini vaqtlar o'tib Sirdaryo suvi yuvib ketgan, qolgani qor va yomg'ir ta'sirida tekkislanib qolgan. Faqat qal'aning shimoliy va shimoliy-sharqiy qismi

uncha katta bo'lmagan do'nglik shaklida saqlanib qolgan. Bu yerda mudofa devor va xandaq qoldiqlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Qazishma ishlaridan so'ng qal'a mustahkam mudofaa inshootlari bilan o'rab olinganligi va uning eng pastki madaniy qatlamlari miloddan avvalgi III-II asrlarga tegishli ekanligi ma'lum bo'ldi. Qal'a devorlari paxsa va xom g'ishtlardan qurilgan bo'lib yillar davomida mudofaa ahamiyatini yo'qotmaganligi, vaqti-vaqti bilan tuzatib turilganligi, ba'zan butunlay qaytadan qurilgan. Qal'adan shimolda, shimoli sharqda 40 gektardan ko'proq maydonni egallagan Shahrison ahamiyatli hisoblanadi. Undan hozirgi kunga kelib 30 gektarga yaqinrog'i saqlanib qolgan. Uning janubiy qismini ham Sirdaryo yuvib ketgan. Shahrison qal'adan xandaq orqali ajralib turgan. Shahrison ikki (ichki va tashqi) qismdan iborat bo'lib, yozma manbalarda yozilgan beshta darvoza ham shu ikkala Shahrisonga tegishli. Shahrison qalinligi va balandligi 20 metrga yaqin devorlar va chuqur xandaqlar bilan o'rab olingan. Tashqi Shahrisonning shimoliy va shimoliy-sharqiy devorlari qoldig'ida 20 ga yaqin minora xarobalari mavjud. Farg'ona o'zining uzumchiligi va undan tayyorlangan xilma-xil ichimliklari hamda uchqur samoviy tulporlari bilan butun sharq olamiga mashhur bo'lgan. Xitoy manbalarida kelishicha, Xitoy imperatori bir juft Farg'ona tulpori uchun butun Sin Tszyan viloyatini berishga rozi bo'lgan ekan. Masalan, tarixiy yilnoma hisoblangan "Shi Tszi" milodiy eradan avvalgi 138 yildan 90 yilgacha bo'lgan voqeliklarni o'z ichiga oladi. Uning yozishicha Farg'onda 70 ga yaqin katta va kichik shaharlar bo'lgan. Lekin u faqat ikkita poytaxt shahar nomini tilga olgan xolos: Ershi (Yuchen),(Bichurin). Shu bilan birga "Shi Tszi" da yozilishicha Farg'ona davlati hamda uning podshosi Muguaning haqida ma'lumotlar kelgan. Xitoy imperatori diplomatik yo'l bilan Farg'onaning samoviy tulporlariniqo'lga kiritmoq niyatida qimmatbaho sovg'alar bilan farg'onaga elchi yuboradi. Xitoy elchisi Farg'ona podshosi Muguaning buyrug'i bilan o'ldiriladi. Bu voqeadan so'ng Xitoy imperatori kuch ishlatib o'z maqsadiga erishish uchun Farg'onaga qo'shin yuborgan. Birinchi yurish mag'lubiyatga uchragan, keyingisida Farg'onaning poytaxti Ershini qamal qiladi. Bu qamal 40 kun davom etganligi, va u yerning oqsasollari tomonida Farg'ona podshosi Minguani elchining o'limida ayblab, uni taxtdan voz kechdirib, o'limga mahkum etishganligini ko'ramiz. Bu

yechim bilan Muguaga hamma aybni yuklab, xitoyliklarga tinchlik sulhini taklif qildilar. Sulhga binoan xitoyliklar Farg'onaning samoviy tulporlarini olib o'z yurtlariga qaytadilar. Yuqorida keltirilgan Shi Tszi ning xabarlarini milodiy eradan avvalgi II-I asrning boshlarida Farg'onada podsho yakkayu yagona hukmdor bo'lmaganligi va uning harakatlari oqsoqollar kengashi tomonidan nazorat qilinib turilishi haqida guvohlik beradi. Ikkinchi tarixiy manbaa «Xanshu» hisoblanib, u milodiy eradan avvalgi 138 yildan to milodiy eraning 23-yiligacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi. Milodning I- asrlariga kelib Farg'ona vodiysining daryo va soy havzalaridan eng unumli yerlari to'liq o'zlashtirilgan, va o'sha davrga kelib dehqonchilik keng rivojlangan. Bu bilan birga savdo aloqalarining kengayishi, ko'p tarmoqli hunarmandchilikning jadal rivojlanishi, konchilikning tezkorlik bilan o'sishi shahar madaniyatining har tomonlama gullab yashnashiga olib keldi. Buning natijasida shahar madaniyati va turmush tarzi jamiyatning asosiy mezoniga aylanib borgan. Bu davrda shahar atrofigina emas, balki uzoq qishloqlar ham shaharga taqlid qilib yashay boshlagan, shuning uchun ko'plab xitoy manbaalarida katta qishloqlar ham shahar deb tilga olinganligini uchratamiz. Axsikent kabi shaharlar esa har tomonlama rivojlangan. Milodiy VI-VII asrlarida shaharda uy-joy qurilishiga katta ahamiyat qaratiladi. Uylar besh olti xonali qilib qurilgan. Xona devorlari silliq qilib suvalgan, xatto bazi uylarda suvoq ustidan rangli bo'yoqlar berilgan. Har bir xonadonda alohida yotoqxona, omborxonasi, oshxonasi, bir xillaridatoza suv qudug'i ham bor. Bu ham o'sha davrda qurilishning rivojlanganligini ko'rsatadi. Bu davrga kelib Buyuk ipak yo'li orqali xilma-xil tovarlar, jumladan, ipak matolar, qimmatbaho toshlar, oltin va kumush buyumlar, dori-darmonlar, va rang-barang bo'yoqlar, samoviy tulporlar, ajoyib qushlar, jannatiy mevalar va har-xil ichimliklar tashilgan. Afsonaviy bu yo'l bo'ylab talantli mo'siqachilar, aktyorlar, rassomlar, qo'li gul ustalar va din targ'ibotchilari sayohat qilganlar. Yozma manbaalarning bergan xabarlariga ko'ra, Xitoy imperatori saroyida Toshkent va Samarqanddan borgan san'at ustalari doimiy chiqishlar qilib turgan. O'rta Osiyo podsholari esa Xitoy ipak matolaridan tikilgan liboslarni yoqtirib kiyishgan. Tili va diniy e'tiqodlari har-xil bo'lishiga qaramay O'rta Osiyo, jumladan, Farg'ona xalqlari yonma-yon, tinch-totuv hayot kechirishgan. VIII-IX asrning boshlarida Axsikent arab yilnomalarida Farg'ona deb nomlangan. Ilk arab

yilnomalaridan hisoblangan Tabariyning «Payg'ambarlar va shohlar tarixi» asarida Farg'ona vodiysining 5 shahari tilga olingan. Ibn Xordadbek o'zining «Yo'llar va davlatlar» asarida VIII asrning oxiri IX asr boshlarida Bob va Qubo shaharlari orasida Farg'ona shahri joylashganligini yozib, uning aniq koordinatlarini beradi. Uning yozishicha, Bob va Farg'ona shaharlarining orasidagi masofa 4 farsaxga, undan Qubo shahrigacha esa 10 farsaxga teng bo'lganligini ko'ramiz. Axsikent shahrining bosh bozori Shahrisonda bo'lgan. Buni arxeologik izlanishlar to'liq tasdiqlagan. Aniqlanishicha markaziy bozor o'zining savdo rastalari bilan tashqi shahrisonning shimoliy sharqida joylashgan bo'lib, ikki gektardan oshiq joyni egallagan. Ichki shahrisonning ikki joyida yer osti suv tarmog'i ham ochildi. Bu vodoprovodlar X asrning oxirlarida uzoq yillar xizmat qilishga mo'ljallab qurilgan buyuk injenerlik inshootidir. Arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, u qurilgan davrda Shahrisonning ichi zich uylar bilan band bo'lgan. Bu sharoitda yer osti inshooti qanday qurilgan degan savol tug'ilishi tabiiy hol. Aniqlanishicha, o'z zamonasining amaliy ilmlariga tayangan quruvchi ustalar ajoyib inshootni hozirgi metro qurilishi shaklida bunyod etishgan. Avval yer osti tunneli qazilgan so'ngra uning ichida pishiq g'ishtdan yarim gumbazsimon inshoot qurib, uning tubiga katta diametrli sopol quvurlar yotqizilgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida qazib olingan sopol quvurlar hozirda Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyida noyob eksponat sifatida saqlanib kelinmoqda. Suv shu quvurlar orqali oqqan. Bunday sopol quvurlar parchalarini Shahrison va rabodning barcha joyida uchratish mumkin. Bu suv tarmog'i shahar aholisiga ikki yuz yildan ortiq xizmat qilgan. Birinchi Shahrison hududida X-XII asrlarga oid jome' masjid ham topilgan va o'rganilgan bo'lib, uning ichki qismida aylanasiga ayvoni bo'lgan. Ayvon o'z davrining mohir ustalari tomonidan yasalgan ajoyib ustunlar bilan bezatilganligi, masjid hovlisining o'rtasida to'rtburchak shaklda hovuz bo'lgan, hovuz qirg'oqlari va masjid hovlisi pishiq g'ishtlar bilan ziynatlangan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, tashqi Shahrisonning quyi qatlamlarida ilk temir davriga oid topilmalar qo'lga kiritilgan. Bu esa Axsikent tarixining, qolaversa, bu hududdagi sug'orma dehqonchilik tarixning yaqin uch ming yilga teng ekanligiga guvohlik beradi. Ikkinchi shahrison hududining to'qqiz joyida bir zamonlar zilol suvga to'la bo'lgan hovuzlar

topildi. Arab sayyohlarining yozishicha bu hovuzlarining qirg'oqlari juda chiroyli qilib bezalgan va suvga maxsus zinapoyalar yordamida tushilgan. Shahrison harobalari ustida sayr qilib yurgan kishi har bir qadamda ishlab chiqarish korxonalarining qoldiqlariga duch keladi. Bu esa har bir kishini, bu yerda faqat savdo do'konlari va hunarmandchilik ustaxonalari bo'lgan, degan xulosaga kelishi mumkin. Biroq tadqiqotlar davomida bu yerdan XI-XII asrlarga oid o'rta hol oilalar yashagan to'rt-besh xonali uylar ham ochildi. Uylarning omborxonasi, oshxonasi va yotoqxonasi qoldiqlari ko'zga tashlanib turadi. Uylar qish oylari mo'rili o'choq va sandal yordamida isitilgan. Xonadonlarda yuvindi suvi hamda meva-cheva qoldiqlari to'kiladigan alohida-alohida o'ralar bo'lgan. Arxeologik izlanishlar davomida shahrison territoriyasida temir va mis eritadigan maxsus pechlar, hunarmandlarning ustaxonalari esa metall toblaydigan o'choqlar ham ochildi. Shuni ko'rish mumkinki Axsikent ustaxonalari qurilish va xo'jalik uchun ishlatiladigan oddiy metall buyumlaridan tortib, to egilsa sinmaydigan, toshga solsa kesadigan qilich, xanjarlar tayyorlangan. Mana shunday qimmatbaho qurollardan birining oltin suvi yuritilgan dastasining kichik parchasi 2001 yilda hunarmandlar mahallasidan topildi.

1991-yil 31-avgust kuni Vatanimiz tarixida, o'zbek davlatchiligida hamma orzu qilgan mustaqillikka erishildi. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek: "...Xalqning madaniy qadryatlari, madaniy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan- avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qudratlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishiga muvofiq bo'ldi. 1993-1996 yillarda Axsikent qal'a mudofa devorlari o'rganilib, tadqiq etildi. Bunda zukko arxeolog Abdulhamid Anarboyevning xizmati katta bo'ldi. Tadqiqotlar chog'i ikkala shahrison ham baland devorlar bilan o'ralganligi, tashqi shahrisonning shimoliy-g'arbiy devorlari qoldig'ida 20 ga yaqin minora bo'lganligi aniqlandi. 1997-2000 yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida sirlangan sopol chiroq, piyola, kosa va tovoqlar topildi. Sirlangan turli o'lchamdagi xumlar (don saqlash uchun teshiklar bor maxsus xumlar), xumchalar, ko'za, chapyasi, tuvak, turli o'lchamdagi xo'jalik quvurlari, sopol qozonlar, qadah, simob saqlashga mo'ljallangan xumlar chiqqanligini ko'rish

mumkin. Ushbu buyumlarning ayrimlari (kosa va tovoqlar) kufiy yozuvi bilan bezalganligini, xalq orasida arab yozuvi, qur'on oyatlari tushirilgan buyumlarga talabning kuchli bo'lganligini tahmin qilishimiz mumkin. Buyumlarda ko'proq «al-baraqqa» so'zlari yoki ustalarning ismlari qayd etilgan. Sopollarga o'yma, bosma qirma usullarda kaftgir, mix, bigiz, pichoq o'q uchi kabilar topilgan. Misdan yasalgan zebu-ziynatlar, igna va tangalar (somoniyalar, qoraxoniylar, xorazmshohlar davriga oid) « La ilaha illolohu Muhammadur Rasululloh» degan yozuvi, orqa tomonida zarb etilgan shahar, vaqti va hukmdor ismi bitilgan. Bunday tangalar va sopol buyumlar hozirda Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyida saqlanib kelinmoqda. Axsikentda qazish ishlari hozir ham davom etmoqda. Olib borilayotgan tadqiqotlar Axsikent tarixini yanada yangidan-yangi ma'lumotlar bilan boyitadi. Yuqorida keltirgan ma'lumotlarim ko'xna Axsikent va Axsining ijtimoiy-iqtisodiy hamda moddiy va madaniy tarixidan bir tomchi xolos. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining ilmiy xodimlari tomonidan boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda davom etayotgan ilmiy kuzatish-tekshirish va qazish ishlarining natijalaridan umid katta. Chunki Axsikent tarixini o'rganish so'zsiz o'lkamiz tarixining yozilmagan va o'rganilmagan davriga yangi sahifalar bo'lib qolishiga ishonamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Anarboyev A. Farg'onaning qadimgi shaharlari va ularning markaziy Osiyo tarixida tutgan o'rni. Toshkent-2022.
2. Namangan viloyat o'lkani o'rganish muzeyi Namangan davlat universiteti. Axsikent. Toshkent 2009.
3. Anarboyev A. Axsikent arxeologiya parki. Toshkent 2023.